

OLXO'RINI MONILIOZDAN HIMOYA QILISH

*Feruzbek Farxod o'g'li Kuranbayev,
tayanch doktoranti*

ORCID:

*Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi
bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy
tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Olxo'ri o'simlikida bir necha turdagi zamburug' kasalliklar ma'lum bo'lib ularga qarshi kurashda samarali usullardan foydalanish eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy ishlarimiz olxo'ri daraxtida monilioz kasalligiga qarshi kurashda samaradorligi yuqori bo'lgan fungitsidlarni sinashdan iborat. Monilioz kasalligiga qarshi sinovdan o'tkazilgan fungitsidlar ichida eng yuqori samarani Xorus S.D.G (750 g/gk) Fundozol (10 gr/kg) fungitsidlarni qo'llaganda bilologik samaradorlik gul, g'uncha, barg va novdada 83,0% dan 85,0% gachanai tashkil qildi.

Kalit so'zlar: Olxo'ri, daraxt, kasallik, monilioz, fungitsid, samaradorlik.

Dolzarbliigi. Respublikamizining turli viloyatlarida olxo'ri bog'lari yildan-yilga kengayib bormoqda bu esa olxo'ri bog'larida uchraydiga monilioz, klyastersporioz, un shudrining va boshqa kasalliklarning rivojlanishiga va hosildorlikka sezirarli darajada kamayishiga olib kelmoqda. Olxo'ri bog'larida bu kasalliklarning rivojlanishiga asosiy sababi agroteknik va kimyoviy kurash choralarini o'z vaqtida qo'llanilmasligi, ob-havo sharoitining o'zgarishi va eski bog'larining rekonstruktsiya qilinmaganligidandir.

Monilioz kasalligi bilan danakli mevalarning barchasi malum bir darajada zararlanadi. Eng kuchli darajada zararlanadigan danakli mevalar qatoriga, shaftoli, olxo'ri, o'rik, va gilos daraxtlari kiradi.

Monilioz kasallagi yur yuzining barcha danakli mevali daraxtlar tarqalagan hududlarida uchraydi. Mamlakatimizda ham eng kuchli zarar keltiradigan kasalliklarda biri hisoblanadi.

Kasallik ta'sirida daraxtning guli, mevasi va novdalari zararlanadi. Kasallik natijasida kasallangan orginlarning qurub qolishiga olib keladi. shu sababli ham bu kasallikga monilioz kuyish deb ham ataladi. Mevali daraxtlarda monilioz chirish yoki monilio qo'zg'atuvchi *Monilia cinerea* Bonord. U o'simlik mevasining chirishiga olib keladi.

Tadqiqot obyekti va usullari. Olxo'rida uchraydiga monilioz kasallikini aniqlashva unga qarshi kurashda fungitsidlarni sinovdan o'tkazish bo'yicha kichik dala tajirbalara Xorazm viloyati urganch tumani Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi

bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Xorazm ilmiy tajriba stansiysi bog'larida olib boriladi.

Kimyoviy ishlov vegetatsiya davomida 3 marotaba; daraxtlar kurtak yozganda, daraxtlar gullab bo'lagach 2-ishlovdan 14-kun so'ng 500 l/ga ishchi eritma hisobida o'tkazildi.

Olxo'ri daraxtlarida monilioz kasalligini tarqalishini va rivojlansishini aniqlash uchun o'simlikning 4 tomonidan 10 ta novdadan barg va mevalar ko'rib chiqiladi.

Gul, barga va novdalarda monilioz kasalligini zararlanish darajasi quyidagi shkala bo'yicha aniqlanadi:

Ball:

- 0-kasallik yo'q;
- 1-urug'chi va gulbandlarning nobud bo'lishi;
- 2-gul va barglarni nobud bo'lishi;
- 3-barcha gul va barglarni qurub qolishi;
- 4-zararlangan a'zolarida zamburug' sporalarini uchrashi;

Novdalarni qurishi.

Kasallikning tarqalishi quyidagi formulada hisoblanadi:

$$P = \frac{a \times 100}{h}$$

P - kasallikning tarqalish foiz hisobida,

a-kasal o'simlik soni

h-kuzatilyotgan o'simlikning umumiy soni.

Kasallikning rivojlanishi quyidagi formulada aniqlanadi:

$$P = \frac{E(a * b) * 100}{N * K}$$

P-kasallikning rivojlanishi %

E (a * b) – kasallik bilan zararlangan a'zolarining ballardagi ifodasiga ko'paytmasining yig'indisi,

H-kuzatilgan o'simlik a'zolarining umumiy soni,

K-shkaladagi eng yuqori ball.

Tadqiqot natijalari. Mevali daraxtlarni asosiy kasalliklardan himoya qilishda eng yaxshi usullardan biri bu kimyoviy kurashdir. Kasallikka qarshi fungitsidlar bilan 1-kimyoviy ishlov gullashdan oldin o'tkazilganda qolganlari gullashdan so'ng va 2 hafta o'tkazib amalgam oshirilsa yuqori samara beradi.

2024-2025 yillarda Xorazm viloyati urganch tumani Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining

Xorazm ilmiy tajriba stansiysi olxo'ri bog'ida olxo'rining monilioz kasalligiga qarshi fungitsidlarning biologik samardorligini o'rganildi.

2024-2025 yillarda monilioz kasalligiga qarshi Xorus S.D.G (0,3-04 kg/ga), Saprol 20% em.k.(1,0-1,5 l/ga) Skor 25% em.k. fundozol (10 gr/kg) sarf meyorda sinovdan o'tkazildi. Andoza sifatida Difen super 55% n.kuk.(0,25 kg/ga)

Nazorat variantida monilioz kasalligi bilan olxo'rining barg va novdalari 28,0% dan 290,% gacha kasallangan bo'lsa, kasallikning rivoji 12,7% dan 13,6% ni tashkil etdi.

Kasallikla qarshi sinovdan o'tkazilyotgan fungitsidlar ichida eng ijobiy ta'sir etgan Xorus S.D.G (750 g/gk) Fundozol (10 gr/kg) fungitsidlarini yuqori miqdorda qo'llanilgan variantda ko'rsatdi kasallanish gul, g'uncha,barg , va novdada Xorus S.D.G qo'llanilganda 4,5% dan 4,9% gacha, kasallikning rivojlanishi 1,8% dan 2,2% gachani tashkil qildi. Bilogik samaradorlik gul g'uncha barg va novdada 85,0% dan 86,0% gachani tashkil qildi.Andoza sifatida Difen super 55% n.kuk. (0,25 kg/ga) fungitsidi qo'llanilganda 6% dan 7% gacha, kasallik rivojlanishi 2,5% dan 2,9% gachani tashkil qiladi. Bilogik samaradorlik 80,2% dan 81,5% gachani tashkil qildi.

Xulosa. Olxo'ri bog'larida kasallik chaqiradigan monilioz kasalligiga qarshi novdada Xorus S.D.G qo'llanilganda (0,4 kg/ga) va Fundozol (10 gr/kg) fungitsidlarini ishchi eritmalari yuqor miqdorda vegetatsiya davrida 3 maratoba; daraxtlar kurtak yoyganda, daraxtlar gullab bo'lgach va 2-ishlovdan 2 hafta o'tkazib 1000 l/ga ishchi eritma hisobida kimyoviy ishlov berilsa olxo'ri sifati saqlanib qoladi. Olxo'ri bog'larida monilioz kasalligiga qarshi qo'llanilgan fungitsidlarning biologik samardorligi Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik,uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiysi

REFERENCES

1. A.Sh. Xamrayev, B.A. Xasanov, B.A. Sulaymonov, A.G. Kojevnikova, E .A. Xolmuradov O'simliklarni biologik himoya qilish darslik – Toshkent,-2013- b.279-285
2. Xodjaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent, 2004.– B.83–90.
3. Chumakov A.E., Minkevich I.I. i dr. Osnovnoe metody fitopatologicheskix issledovaniy. // Nauchnye trudy VASXNIL. – Moskva, «Kolos», 1974. – S.57
4. B.A. Sulaymonov, B.Q. Muxammadiyev, Z.G_. Nosirova O'simliklarni himoya qilishda ilmiy tadqiqot ishlari-Toshkent-2019 b.37 (81-82)
5. S.M.Pospelov O'simliklarni ximoya qilish S.M.Pospelov Toshkent-1978 y b.397-399.